



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **MODERNIZM ADABIYOTIDA ONG, SHAXS VA BORLIQNING BADIY- ESTETIK KONSEPSIYASI**

**Uralova Gulhayo Baxodir qizi**

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2-bosqich tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada modernizm adabiyotining asosiy xususiyatlari falsafa va psixologiya bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Unda ong oqimi, individuallik, begonalashuv, absurdizm hamda sub’ektiv vaqt kabi tushunchalar orqali shaxsning ichki olami va uning badiiy talqini yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ong oqimi, individuallik, ijtimoiy yakkalanish, muloqotsizlik, absurdizm, psixoanaliz, sub’ektiv vaqt, ichki monolog, begonalashuv, badiiy-estetik konsepsiya.

## **ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ СОЗНАНИЯ, ЛИЧНОСТИ И БЫТИЯ В ЛИТЕРАТУРЕ МОДЕРНИЗМА**

**Уралова Гулхаё Баходир кизи**

Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, базовый докторант 2 курса

### **Аннотация**

В статье анализируются основные особенности литературы модернизма в связи с философией и психологией. Рассматриваются такие понятия, как поток сознания, индивидуальность, отчуждение, абсурдизм и субъективное время, через которые раскрывается внутренний мир личности и его художественная интерпретация.

**Ключевые слова:** поток сознания, индивидуальность, социальная изоляция, отсутствие коммуникации, абсурдизм, психоанализ, субъективное время, внутренний монолог, отчуждение, художественно-эстетическая концепция.

## **THE ARTISTIC AND AESTHETIC CONCEPT OF CONSCIOUSNESS, PERSONALITY, AND BEING IN MODERNIST LITERATURE**

**Uralova Gulhayo Baxodir qizi**

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2nd Year Basic Doctoral Student

### **Abstract**

This article analyzes the main features of modernist literature in relation to philosophy and psychology. It explores concepts such as stream of consciousness, individuality, alienation, absurdism, and subjective time, through which the inner world of the individual and its artistic interpretation are revealed.

**Keywords:** stream of consciousness, individuality, social isolation, lack of communication, absurdism, psychoanalysis, subjective time, inner monologue, alienation, artistic and aesthetic concept.

Olimlarning nazariyalarida modernizm adabiyotining taraqqiyot omillari san’atning boshqa turlari — tasviriy san’at, musiqa, haykaltaroshlik bilan uzviy bog‘liq holda, falsafa va psixologiya yutuqlari hamda kashfiyotlariga e’tibor qaratgan holda rivojlangani haqidagi qarashlar ilgari suriladi. Darhaqiqat, mazkur hodisa adabiyotning shakli hamda mazmunini tubdan

yangilashga xizmat qilgan. Shu asosda, bizningcha, modernizmni quyidagi elementlar tizimi orqali tavsiflash mumkin:

**1) Ong oqimi-**Ma'lumki, modernist yozuvchilarni qahramonning botiniy ehtiyoji, uning kechinmalari dunyosi, atrof-muhitni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari hamda hissiy ong asosidagi harakatlar birlashtiradi. Qahramon nutqi, tafakkuri, taassurot va xotiralar harakati "ong oqimi" yordamida uzatiladi. "Ong oqimi" adabiy yo'nalish sifatida paydo bo'lgan modern adabiyotning ildizi dunyoda yaratilgan ilk rivoyat, asotir va miflarga borib taqaladi. "Odam alayhissalomning o'g'illari Hobil va Qobilning fojiasi, ularning istig'fori, tavba-tazarrusi, iztiroblari hali-hanuz ong oqimining teran tomirlarida oqib kelmoqda. Bir jihatdan ong oqimiga xos murakkab jarayonni qog'ozga tushirish osondek tuyulsa-da, aslida murakkab ijodiy ish hisoblanadi." Anglashiladiki, ong oqimi inson ongidan o'tayotgan fikrni ifodalashi bilan ichki monolog texnikasini eslatadi, lekin ong oqimida ongdan o'tgan narsaning ifodasi ichki monologdagi kabi mantiqiy tarzda ifodalanmaydi. O'z navbatida, inson miyasi bir vaqtning o'zida bir nechta fikrlarni jamlashi hamda ayni bir vaqtda ongida o'tmish va hozirgi zamon voqeliklarini uyg'un holda tasavvur qila oladi. Bu usulda bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan va grammatik qoidalarga amal qilmaydigan gaplar qo'llaniladi. Buning sababi shundaki, ong oqimidagi gaplar assotsiativlikka ko'ra tartibga solinadi. Ong oqimi konsepsiyasi Genri Bergson, Zigmund Freyd va Karl Gustav Yung singari faylasuflarning psixologik tadqiqotlaridan so'ng rivojlangan. Fransuz faylasufi Genri Bergsonning "Ongning bevosita ma'lumotlari" kitobida keltirilgan fikrga ko'ra, insonning ichki vaqti tashqi dunyodagi vaqt oqimidan farq qiladi. Tashqi dunyoda vaqt "o'tmish-hozir-kelajak" ketma-ketligi bo'yicha o'lchanadi, lekin insonning ichki dunyosida bunday xronologik tartib mavjud emas. Ichki vaqtlar o'zaro bog'lanib, subyektiv tajribaga moslashadi, bu esa inson tafakkuri va estetik idrokning murakkabligini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bergsondan keyin Freyd o'zining psixoanaliz nazariyasida inson qalbining katta qismi ongsiz ekanini va inson xatti-harakatlarining aksariyati ongsiz tarzda boshqarilishini ochib berdi. Freyddan keyin Adler va Yungning psixoanaliz sohasidagi tadqiqotlari bu fikrni yanada kengaytirdi va bu tadqiqotlar adabiyotga ham ta'sir ko'rsatdi. Masalan, syurrealizmdagi avtomatik yozish usulida xayolga kelgan narsani o'ylamasdan, rejalashtirmasdan to'g'ridan to'g'ri yozish Freyd ta'sirida shakllangan uslubdir.

Chex-fransuz yozuvchisi, shoiri Milan Kundera o'zining "Roman san'ati" kitobida Joysning "Uliss" romanida ong oqimidan foydalanishini majoziy ma'noda quyidagicha ifodalagan: "Joys Leopold Blum ("Uliss" romani qahramoni) miyasiga mikrofon o'rnatilgan va biz u o'ylagan hamma narsani eshitamiz". Modernist yozuvchilar ijodkor vazifalarini anglashni borliqning asosiy qonunlarini har tomonlama tasvirlash shakllariga intilish, ehtiroslar, impulslar, instinktlarning o'zaro ta'siri hamda hayotning "universal"ini yaratish istagi bilan bog'laydilar.

**2) Individuallik-**Individuallik (lotincha *individuum* — "bo'linmas") — muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilaridir. Professor Dilmurod Quronov badiiy ijodda individuallikning o'rni haqida fikr yuritir ekan, uning qimmatini ortib borishi barobari an'anaviy janr kanonlari yemirila boshlaganini ta'kidlaydi. "G'arb adabiyotida bu hodisa XVIII asrdan, bizda esa XX asrning avvallaridan boshlab kuzatiladi. Endilikda qat'iy me'yorlarga amal qilish majburiyatidan xalos bo'lgan ijodkorning muayyan bir janrda yaratgan asarida ham uning o'zigagina xos janr xususiyatlari namoyon bo'laveradi." Modernizm adabiyotida individuallik qahramonning ichki "men"i va idrokini markazga qo'yadi. Qahramonning hissiy kechinmalari, qarorlari, ichki iqrorlari orqali syujet va janrning an'anaviy chegaralari parchalangan holatda tasvirlanadi.

**3) Ijtimoiy yakkalanish-**Jamiyat, iqtisod, siyosat, ilm-fan, din sohalarining muttasil shakllanishi natijasida inson va jamiyat, inson va inson munosabatlari o'rtasida yorilish va ichki bo'linishlar yuzaga keladi. Bu odatda "begonalashish" deb ataladi. Alber Kamyuning "Begona" asaridagi Merso obrazi "begonalashish"ni tan olgan va shu begonalashuvni ruhiga singdirib yuborgan absurd odam sifatida gavdalanadi. Yozuvchi Nazar Eshonqul "Begona" asari haqida fikr

yuritar ekan, Merso obraziga alohida to'xtaladi: "Merso hamma qilgan ishni qilmaydi, hamma kuyungandek aza tutmaydi, o'zini onasini yaxshi ko'rgandek ko'rsatmaydi, o'zini qonunni hurmat qiladigandek tutmaydi, o'zini ruhoniyl oldida tavba qildirmaydi, qonundan shafqat qilishini so'rab tavba qilmaydi, boshqacha aytganda, u yolg'onchi emas. Qanday o'ylasa, qanday bo'lsa, o'zini shunday tutadi. Yolg'onlashishni istamaydi. Yuziga niqob kiymaydi. Aynan shuning uchun u bugungi jamiyatga, bugungi axloqqa yot odam. Kamyu bu qahramonini jamiki ijtimoiy munosabatlarga qarshi qo'yadi." Bugungi davrda begonalashuv muammosi shaxsdan boshlanadi. Shaxs o'zining hissiy va ruhiy tayyorgarligi bilan dunyoni oddiy odamdan boshqacharoq ko'radi, natijada jamiyat va odamlardan ijtimoiy yakkalanish jarayoni yuzaga keladi. Modernizatsiya arafasida aql-idrokdan foydalana boshlagan shaxs mustaqil fikrlash, harakat qilish va jamiyatning metindek mustahkam qonun-qoidalariga bo'ysunmaslik huquqini qo'lga kiritdi va shu tariqa begonalashuvning birinchi bosqichiga qadam qo'ydi. Yakkalanish ikki shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi shakli — o'zi yashayotgan jamiyatda noqulay, unga moslasha olmaydigan shaxsning o'z xohish-istagi vositasida begonalashuvi, ikkinchisi — jamiyatda boshqacha fikrlaydigan, unga moslasha olmaydigan va uni qabul qilmaydigan shaxslarning begonalashishi va rad etilishi natijasida yuzaga keladigan begonalashuvdir. Birinchi shakli, ya'ni o'z xohishi bilan begonalashuv modern asar qahramoni xarakteriga xosdir.

**4) Muloqotsizlik**-Muloqotsizlik almashinuv imkoniyatlarining yetishmasligi bilan bog'liq. Shaxsning ichki yolg'izligi, "ichki men"i bilan muttasil suhbat tashqi dunyodagi odamlar bilan muloqot qilish istagining yo'qolishiga olib keladi. Modern asar qahramonining yana bir asosiy xususiyatlaridan biri uning atrofidagi odamlar bilan muloqot qila olmasligidir.

**5) Ishonchsizlik**-Ishonchsizlik psixologik zaiflik bilan bog'liq. Insonning kelajagini uning o'zi emas, balki tashqi ta'sirlar, taqdir, tasodif yoki jamiyatdagi alohida institutlar belgilaydi, degan e'tiqod bu holatga xosdir. Atrofdagi narsalarni ongi orqali idrok eta olmaydigan, o'zini o'z taqdirini qurishga, o'z kelajagini o'zi belgilashga qodir emas deb hisoblaydigan, natijada o'z-o'ziga ishonchini yo'qotadigan shaxsning bu holati hamisha modern asarning asosiy mavzularidan biri bo'lib kelgan. Modernistlar shaxs taqdirini Xudo yaratishiga ishonganlar. Biroq asarlarida atrofdagi infantilizmni, ishonchsizlikni tasvirlashgan.

**6) Absurdizm**-Absurd (lotincha: *ab-surdus* — bemavrid, ma'nosiz, karquloq) — borliqni badiiy aks ettirishning bir turi bo'lib, uning uchun voqealar tartibidagi sabab-oqibat munosabatlarining buzilishi va inson borlig'ining ma'nosiz jihatlarini aks ettirish xarakterlidir. Absurd avangardizm san'atida ko'proq bo'y ko'rsatgan bo'lib, bu tafakkurning shaklga nomuvofiqligi asosida yuzaga kelgan. Absurdga xos jihatlar syurrealizm, dadaizm, kontseptual san'at, video-art, pop-art, sots-art kabi oqimlarda ham qo'llanilgan. Muayyan narsa, voqea va xulosaning ichki ziddiyati, noto'g'riligi va yasamaligi; falsafada esa muayyan g'oyalar, qarashlar va ta'limotlarning g'ayriilmiyligi, hayotga mos kelmasligi absurd tushunchasi bilan ifodalanadi. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davr Yevropa ziyolilarining tushkun qarashlarini ifodalagan. Ma'nosizlik, bo'shliq — hayotidan ma'no topa olmayotgan, o'z ichki dunyosida adashgan, haligacha o'zligini izlayotgan insonning holati. Uni ikkinchi o'ringa qo'yib, qadsiz deb biladigan muhit oldida shaxsning bu muhitga ma'nosiz, maqsadsiz, loqayd qarashi modern asar qahramonlari olamiga ham xosdir.

**7) Nomuvofiqlik**-Inson ideallarining yo'nalishi doimo kelajakka qaratilgan. Ideallarga ega bo'lish — bu dunyo bilan bog'lanish, umidlarga ega bo'lishni anglatadi. Adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdamov "Estetik ideal" tushunchasini tasniflar ekan, shunday izoh beradi: "Nihoyat, 90-yillarga kelib, imperiyaning qulashi jamiyatda tamomila o'zgacha kayfiyatni paydo qildi. Chunki mamlakatning istiqbolga erishuvi bilan XX asr shoirlari fikru yodini band etib, goh oshkor, goh pinhon yashab kelgan asriy orzu-armon ushlangan edi. Lekin shoir yana taraddudda qoldi. Nega? Chunki uning tafakkur eshiklari olamga ochildi va shoir istar-istamas modernizm, postmodernizm kabi "begona dunyo" oqimlarining "tushuniksiz havu"sidan nafas ola boshladi. Natijada she'riyat o'zini bir muddat idealsiz — yelkansiz kemadek his qildi." Kelajagi qanday

bo‘lishi haqida tasavvurga ega bo‘lmagan bugungi kun odamining mazkur umidsiz holati unga ideal yetishmasligidan dalolat beradi.

**8) Makon va zamonning nisbiylashuvi**-Nazariy jihatdan qaralganda, modern asarda vaqtga munosabat an’anaviy romandan tubdan farq qiladi. An’anaviy romanda vaqt faqat oldinga oqadigan chiziqli harakat sanaladi. Eynshteyn nazariyasiga ko‘ra, vaqt chiziqli ravishda o‘tmaydi va yorug‘lik tezligiga qarab o‘zgaradi. Eynshteyndan tashqari vaqt tushunchasiga yana bir yondashuvni Genri Bergson keltirgan. U o‘zining “Ongning bevosita ma’lumotlari” asarida subyektiv vaqt haqida yozgan va bu modernistik romanga juda jiddiy ta’sir qilgan. Bergsonning fikricha, vaqtni ob’ektiv o‘lchab bo‘lmaydi, u soat va daqiqalarga siqib qo‘yilmaydi. Shunday qilib, modernistik romanda boshdan kechirilgan lahza o‘tmish bilan munosabati nuqtayi nazaridan qimmatlidir. Modernistik romanlarda o‘tmish hozirgi lahzani bo‘luvchi va uni qayta talqin qiluvchi tushunchadir va bu talqin bilan boshdan kechirilgan lahzani ajratadi. O‘tmishga bo‘lgan bunday munosabat avval sodir bo‘lgan va tugagan, sanab o‘tilgan voqea va bosqichlarni eslashdan mutlaqo farqli tuyg‘udir. Ya’ni modernizm da voqea emas, ong harakati vaqtni belgilaydi. Modern asarlarda vaqt allaqachon sodir bo‘lgan yoki tugagan hodisa emas. Bu ayni daqiqani ham belgilaydigan va unga ta’sir qiladigan elementdir. Unda xronologik tartib zanjiri buziladi, masalan, o‘tmish hozirgi kunga o‘tkaziladi. Negaki, modernistik tafakkurda vaqt tashqi ob’ektiv oqim emas, balki ong jarayonlari — xotira, idrok va ruhiy kechinmalar orqali shakllanadigan psixologik tajriba sifatida talqin qilinadi.

**10) Pessimizm**-Birinci jahon urushidan keyin insonning pessimizmi, umidsizligi va tushkunligi kuchayib, bu holat uning ruhiyatiga kuchli ta’sir qildi. Shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy dunyo ichra adashgan, zamonaviy dunyo yangiliklariga loqayd qaragan, sust bo‘lib, o‘z ichki dunyosiga g‘arq bo‘lgan shaxs modernistik asar qahramonidir. U endi an’anaviy roman qahramoni kabi tashqi dunyo bilan uzviy munosabatda bo‘lgan dinamik shaxs emas. U o‘zining ichki dunyosini markaziy o‘ringa qo‘yadigan qahramondir. Modernist ijodkorlar asosan o‘z asarlarida hayotning qora tomonlarini aks ettirishga ko‘proq urg‘u beradilar. Voqelikni tasvirlashda judolik va iztirobni ekspressiv bo‘yoqlarda chizar ekanlar, inson ruhiyatidagi ichki parokandalik va ma’naviy bo‘shliq holatlarini badiiy talqin qiladilar. Shu sababli modern she’rlar va romanlarda urush, jamiyatdan begonalashuv mavzulari birlamchi o‘rinda turadi.

**11) Ichki suhbat / ichki monolog**-An’anaviy asar qahramoni — doimiy ob’ektiv voqelikda yashaydigan, o‘z oldiga ma’lum maqsadlar qo‘ygan, asar oxirida ijobiy yoki salbiy manzilga yetib boruvchi shaxsdir. Bundan tashqari, uning asosiy xususiyati shundaki, u o‘zining ichki dunyosiga emas, balki tashqi hayotda u bilan qanday voqelik sodir bo‘lishiga e’tibor qaratadi. Uning uchun har doim ikki tomonlama qarama-qarshiliklar mavjud: zolim–mazlum, qishloq–shahar va hokazo. Modern asarni boshqa an’anaviy uslubdagi asarlardan ajratib turadigan asosiy jihat uning qahramoni xarakterining turli xususiyatlarga egaligidir. Modern asar qahramoni ijtimoiy muammolarni iroda kuchi bilan hal qiladigan, jamiyatda mardlik, halollik, poklik timsoli bo‘lgan an’anaviy roman qahramonlaridan farqli o‘laroq, o‘z ichki olami bilan, jamiyatga yoki tashqi hayotga begona shaxsdir. Shu asosda modern asarning voqeaga munosabatini ikki xilda umumlashtirish mumkin. Birinchidan, voqea-hodisalar minimal bo‘lgan, shaxsning ichki dunyosini ko‘proq ifodalashga intiladigan, dinamika mavjud bo‘lmagan asarlar; ikkinchidan esa an’anaviy asarlardagi kabi muayyan voqea-hodisadan hikoya qiluvchi, lekin mohiyatan faqat bitta motivdan foydalanilgan, ya’ni shaxsning ichki o‘zgarishlari tasvirlanadigan asarlar. Birinchi shaxs hikoyachisi esa voqealarga tashqi nuqtayi nazarga ega. Bu hikoya shaklining asosiy xususiyati shundaki, u voqealarning barcha tomonlarini nazorat qiladi. Birinchi shaxs hikoyachisi asosan an’anaviy romanlarda qo‘llaniladi, chunki an’anaviy romanlar hamisha o‘quvchiga xabar yetkazish, unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga da’vo qiladi. Birinchi shaxs hikoyachisi nuqtayi nazaridan yozilgan ilk romanlarda romannavis o‘zi so‘zlayotgan voqeaning iplarini ushlab turadi, hayot mazmuni haqida mulohaza bildiradi, o‘z qahramonlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatarkan, o‘quvchilarga ham yo‘l ko‘rsatadi. Vaqt o‘tishi bilan birinchi shaxsning chegaralangan,

mulohazali bo‘lmagan bayon shakli qo‘llanila boshlandi (Flober, Emil Zola uslubi), so‘ngra bir shaxsning cheklangan, lekin sub’ektiv nuqtayi nazaridan ifodalangan bayon shakli yuzaga keldi (Genri Jeyms, Jozef Konrad uslubi). Asta-sekin bu ikki shakl ham to‘liq emas deb hisoblanib, ularning o‘rnida ong oqimi va ichki monolog usullari paydo bo‘ldi. Natijada modern asarning muallifi ko‘rinmas, yashirin hikoyachiga aylandi. Ichki monolog usuli an’anaviy asarlarda ham qo‘llanilgan, lekin bu romanlarda modern asarlardagidek shaxsning begonalashuvini ifodalash maqsadi bo‘lmaydi. An’anaviy asarlarda bu uslub qahramonning qo‘rquvi, hayajoni, kuchli muhabbati va nafratini ifodalash uchun ishlatilgan. Modernistik asarda esa bu uslub shaxsning ichki olamini, undagi chalkashliklarni va ruhiy o‘zgarishlarni ifodalashga xizmat qiladi. “Eduar Jyurden, shuningdek, ichki monolog va ong oqimi kabi usullarni ishlatgan birinchi yozuvchilardan biri hisoblanadi. U o‘z asarida insonning psixologik holatlari va ichki dunyosini chuqur tahlil qiladi, bu esa keyinchalik Prust va Jeyms Joys kabi yozuvchilarning asarlarida rivojlangan. Bu asar yozuvchining yangi uslubdagi eksperimentlari bilan ajralib turadi. “Kesilgan lavrlar”da Jyurden ichki monolog usulini qo‘llagan. Bu usulda hikoya faqat tashqi voqealar orqali emas, balki qahramonning ongidagi tafakkur va hissiyotlar orqali ham rivojlanadi. Bu texnika keyinchalik Marsel Prustning “Yo‘qotilgan vaqtni izlash” asarida va Jeyms Joysning “Uliss” asarida muhim o‘rin tutadi. Ichki monolog texnikasidan foydalanganda diqqat qilish kerak bo‘lgan nozik bir nuqta bor.” Ichki monologdagi jumlar so‘zlashuv tilida bo‘lishi, lekin og‘zaki nutqqa o‘xshamasligi kerak. Aks holda, matndagi ichki monolog bo‘lgan parchalar nutqning boshqa shakllaridan farqlanmaydi. Yuqorida keltirilgan elementlar — ijtimoiy yakkalanish, muloqotsizlik, sub’ektivlik, ichki monolog, absurdizm va nomuvofiqlik — birgalikda modernizm adabiyotining markaziy xususiyatlarini tashkil etadi. Ular shaxsning ichki olamini va jamiyat bilan bo‘lgan murakkab munosabatini ochib beradi, an’anaviy syujet va janr chegaralarini buzadi hamda inson tajribasining sub’ektiv va ko‘p qatlamli tabiatini ifodalaydi. Natijada modernistik tafakkur aql va irratsionallik, tartib va bo‘linish, ideal va ma’nosizlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni badiiy tilda uyg‘unlashtirib, adabiyot va san’at tarixida badiiy-estetik hodisa sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Jo‘rayev T. Modern bizga begona emas, biroq u yagona yo‘nalish ham emas // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. — 2009.
2. Bergson H. Time and free will: an essay on the immediate data of consciousness / trans. by F. L. Pogson. — London: Swan Sonnenschein; New York: Macmillan, 1910.
3. Yung K. G. Monolog / A. Otaboy tarj. // Jahon adabiyoti. — 2020.
4. Kundera M. The art of the novel. — Paris: Editions Gallimard, 1986.
5. Eshonqul N. Kitob bandasi. — Toshkent: Akademnashr, 2022. — B. 82–83.
6. Литературный энциклопедический словарь. — М.: Советская энциклопедия, 1987. С.9.
7. Ионеско Э. Противоядия. — М., 1992.
8. Türk dünyası edebiyat kavramları ve terimleri ansiklopedik sözlüğü. — Ankara: Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı, 2001. — Cilt 1. — S. 17.
9. Боров Ю. Эстетика. Теория литературы: энциклопедический словарь. — М.: Астрель-АСТ, 2003. — С. 8.
10. Фалсафа: қомусий луғат / туз. ва мас. муҳар. Қ. Назаров. — Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти; Шарқ НМАК, 2004. — Б. 8.
11. Власов В., Лукина Н. Авангардизм, модернизм, постмодернизм // Малый лексикон искусства. — СПб.: Азбука-Классика, 2005. — С. 9–16.
12. Белокурова С. П. Словарь литературоведческих терминов. — СПб.: Паритет, 2006. С. 10.
13. Karataş T. Ansiklopedik edebiyat terimleri sözlüğü. — Ankara, 2007. — S. 17.
14. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти: монография. — Тошкент, 2012. — Б. 52.
15. Эшонкул Н. «Мен» дан «мен»гача. — Тошкент: Академнашр, 2014. — 66 б.
16. Эшонкул Н. «Мен» дан «мен»гача. — Тошкент: Академнашр, 2014. — 360 б.